





**QASHQADARYO VILOYATI
STATISTIKA BOSHQARMASI**



**QASHQADARYO
VILOYATINING SANOAT
ISHLAB CHIQRISHI**
2022- YIL YANVAR - MAY OYLARI
(DASTLABKI MA'LUMOT)




Qashqadaryo viloyatining sanoat ishlab chiqarishi


(2022- yil yanvar-may oylarida)

Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2022- yilning yanvar-may oylarida viloyat korxonalari tomonidan 7742,2 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2021- yilning yanvar-may oyilariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajm indeksi* 105,1 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishi tarkibida eng katta ulush ishlab chiqaradigan sanoat hissasiga to'g'ri kelib, uning jami sanoat ishlab chiqarishidagi ulushi 69,5 % ni tashkil etdi.




Asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha sanoat ishlab chiqarishi, FHI* % da



*Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.


Jami sanoat ishlab chiqarishi fizik hajmi o'sishining asosiy omili bo'lib, ishlab chiqaradigan (qayta ishlash) sanoatning – 4,9 % ga o'sishi kuzatildi.

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati




Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash korxonalarini tomonidan 2022- yilning yanvar - may oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 716,9 mlrd. so'mni yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 98,3 % ini tashkil etdi.

Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmidagi ulushi, foizda




Togʻ-kon sanoati va ochiq konlarni ishlashda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Oʻtgan yilning mos davriga nisbatan, % da



Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar- may oylari	2022- yil yanvar- may oylari	Farqi +/-
Tabiiy qumlar, ming t.	44,4	13,9	-30,5
Neft, ming t.	12,7	8,5	-4,2



Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar- may oylari	2022- yil yanvar- may oylari	Farqi +/-
Tabiiy gaz, mln. kub.m.	601,8	283,8	-318
Gaz kondensati, ming t.	58,1	48,4	-9,7


Yanvar- may oylari yirik korxonalar boʻyicha

Ishlab chiqaradigan sanoat

mlrd. so'm

Yanvar- may oylari

FHI,% da



2022- yilning yanvar- may oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 5381,5 mlrd. so'mni yoki jami sanoat mahsulotlarining 104,9 % ini tashkil etdi.

2021- yil yanvar- may oylari


61,5 %

2022- yil yanvar- may oylari

69,5%

O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,2 % ni (2021- yilning yanvar- may oylarida – 0,1 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 22,6 % (19,4 %), o'rta-quyi texnologiyali – 2,0 % (2,1 %) va quyi texnologiyalisi – 44,7 % (39,9 %) ni tashkil etdi.


■ 2021- yil ■ 2022- yil




Jami ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sohasining ulushi – 13,2 % (2021- yanvar- may oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 108,1 %), metallurgiya sanoatining ulushi – 0,1 % (2021- yilning yanvar- may oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 38,0 %), to‘qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishning ulushi – 27,9 % (2021- yilning yanvar- may oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 150,4 %), kimyo mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi – 22,4 % (2021- yilning yanvar- may oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 105,5 %), rezina va plastmassa buyumlarini ishlab chiqarishning ulushi – 0,2 % (2021- yilning yanvar- may oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 193,2 %), mebel ishlab chiqarishning ulushi – 0,4 % (2021- yilning yanvar- may oylariga nisbatan fizik hajm indeksi 161,6 %), ni tashkil etdi.

Ishlab chiqaradigan sanoatda ayrim turdagi mahsulotlarning o‘shish sur‘ati
O‘tgan yilning mos davriga nisbatan, % da *


Tabiiy qumlar




Gaz kondensati




Tabiiy gaz




Neft



Propan, Butan




Chaqiq tosh




* Yanvar- may oylarida yirik korxonalar bo'yicha

Yumshoq bug'doy uni




Aroq




Uzum vinosi




Paxta tolasi



Paxta chigiti



Kalava ip



2022- yilning yanvar- may oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 61,6 ming tonna yumshoq bug'doy va spelta uni (2021- yilning yanvar – may oylariga nisbatan 99,1 %) ni, 13,7 ming tonna kalava ip (104,4 %) ni, 26,9 ming tonna paxta tolasi (57,6 %) ni hamda 906,0 ming litr aroq mahsulotlari (110,9 %) ni, tashkil etdi.


Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik sanoat korxonalari tomonidan ayrim turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar- may oylari	2022- yil yanvar- may oylari	Farqi +/-
Yumshoq bug'doy va spelta uni, ming t.	62,2	61,6	-0,6
Paxta tolasi, ming t.	44,0	26,9	- 17,1
O'simlik yog'i (tozalangan), ming t.	1,6	2,4	0,8


Yanvar- may oylarida yirik korxonalar bo'yicha

Metallurgiya sanoati

2021- yil yanvar-may oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida metallurgiya sanoati ulushi 0,5 % ni tashkil etib, uning fizik hajm indeksi 4,6 m. ni tashkil etgan, 2022- yilning yanvar- may oylariga ko'ra, metallurgiya sanoatining ulushi 0,1 %, fizik hajm indeksi esa, 38,0 % ga o'sdi va ishlab chiqarish hajmi 9,3 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarish



2021- yil yanvar-may oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ulushi 0,5 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 91,5 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar-may oylariga ko'ra, boshqa nometall mineral mahsulotlar ishlab chiqarishning ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 1,4 % ni tashkil etib, o'tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 154,2 % ga oshdi va ishlab chiqarish hajmi 105,7 mlrd. so'mni tashkil etdi.


Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

2021- yil yanvar-may oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 12,9 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 100,8 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar-may oylariga ko'ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 13,2 % ni tashkil etdi, o'tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 108,1 % ni va ishlab chiqarish hajmi 1019,7 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Ichimliklar ishlab chiqarish sanoati

2021- yil yanvar-may oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,5 % ni, uning fizik hajm indeksi esa 87,5 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar-may oylariga ko'ra, ichimlik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 0,7 % ni tashkil etdi, o'tgan yilga nisbatan fizik hajm indeksi esa 122,2 % ni va ishlab chiqarish hajmi 51,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.



To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati




2021- yil yanvar- may oylarida ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 23,9 % ni tashkil etgan bo'lsa, uning fizik hajm indeksi 150,9 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar- may oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishning ulushi 27,9 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi 150,4 % ga o'sgan bo'lsa, ishlab chiqarish hajmi 2 162,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Kiyim ishlab chiqarish sanoati


2021- yil yanvar- may oylarida kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 2,1 % ni, fizik hajm indeksi esa 88,4 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2022- yilning yanvar-may oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 2,2 %, fizik hajm indeksi 106,8 % ni, ishlab chiqarish hajmi esa 169,7 mlrd. so'mni tashkil etdi.




Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

2021- yil yanvar-may oylarida kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 19,3 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 108,2 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-may oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 22,4 % ni, fizik hajm indeksi 105,5 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 1736,4 mlrd. soʻmni tashkil etdi.



Mebel mahsulotlari ishlab chiqarish




2021- yil yanvar-may oylarida mebel ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,3 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 95,9 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar- may oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,4 % ni, fizik hajm indeksi 161,6 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 30,8 mlrd. soʻmni tashkil etdi.

Rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish

2021- yil yanvar-may oylarida rezina va plastmassa buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,1 % ni, fizik hajm indeksi esa 159,7 % tashkil etgan,.


Shuningdek, 2022- yilning yanvar-may oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,2 % ni, fizik hajm indeksi 193,2% ga oshib, ishlab chiqarish hajmi 11,9 mlrd. soʻmni tashkil etdi.



Yog'och va po'kak buyumlar ishlab chiqarish

2021- yil yanvar-may oylarida yog'och va po'kak buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,01 % ni tashkil etgan, fizik hajm indeksi esa 141,8 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-may oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,1 % ni, fizik hajm indeksi 14,0 m. ga oshib va ishlab chiqarish hajmi 8,9 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish



2021- yil yanvar– may oylarida mashina va uskunalardan tashqari tayyor metall buyumlar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,3 % ni, fizik hajm indeksi esa 190,6 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yilning yanvar-may oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,3 % ni, fizik hajm indeksi 2,1 m. ni hamda ishlab chiqarish hajmi 21,7 mlrd. so'mni tashkil etdi.

Yozilgan materiallarni nashr qilish va aks ettirish


2021- yil yanvar-may oylarida yozilgan materiallarni nashr qilish va aks ettirish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,01 % ni, fizik hajm indeksi esa 157,6 % ni tashkil etgan.

Shuningdek, 2022- yanvar-may oylarida ishlab chiqaradigan sanoatdagi ulushi 0,0 % ni, fizik hajm indeksi 2,2 m. ni hamda ishlab chiqarish hajmi 2,0 mlrd. so'mni tashkil etdi.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 1601,0 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 20,7 % ini) tashkil etdi. 2022- yilning yanvar - may oylarida, sanoatning mazkur tarmog'ida elektr energiyani ishlab chiqarish, uzatish va taqsimlash, bug' bilan ta'minlash tizimlari va havoni konditsiyalashning o'tgan yilning mos davriga nisbatan fizik hajm indeksi 87,4 % ni tashkil etdi.




Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar – may	2022- yil yanvar – may	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt.s	5792,0	4359,7	-1 432,3
Issiqlik energiyasi, ming gkal	1276,2	1342,5	66,3

yanvar - may oylarida yirik korxonalar bo'yicha

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 42,8 mlrd.so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,6 % ini) tashkil etdi.



Sanoat mahsulotlari	2021- yil yanvar - may	2022- yil yanvar - may	Farqi +/-
Oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar, mln.so'm	4 819,6	4 526,5	-293,6
Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha xizmatlar, mln.so'm	20 393,7	19 297,4	-1 096,3

O'tgan yilning mos davriga nisbatan oqova suvlarni yo'qotish, transportirovka qilish va ishlov berish bo'yicha xizmatlar 93,9 % ni hamda suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha xizmatlar 94,6 % ni tashkil etdi.

Iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi 1 505,1 mlrd.so'mni tashkil etdi va 2021- yilning mos davriga nisbatan 111 % ni, uning jami sanoatdagi ulushi 19,4 % ni tashkil etdi.

Oziq-ovqat mahsulotlari

2021- yil
yanvar - may oylari

63,1%

2022- yil
yanvar - may oylari

64,4%

Nooziq-ovqat mahsulotlar

2021- yil
yanvar - may oylari

36,9%


2022- yil
yanvar - may oylari

35,6%

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish tarkibida vino va aroq mahsulotlari va pivo 3,1 % (2021- yil yanvar – may oylarida 2,5 %)ni tashkil etdi. Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyatda jami hajmidagi eng yuqori ulushi Qarshi shahriga to'g'ri kelib 23,5 % ni va Koson tumani 10,2 % ni, Yakkabog' tumani 7,9 % ni Shahrizabiz shahri 7,5 % ni, Kitob tumani 7,0 % ni, hamda Chiroqchi tuman 6,9 % ni tashkil etdi. Shuningdek, iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining o'sish sur'atida tumanlarda o'sish sur'ati (111,0 %) darajasidan yuqori ko'rsatkich Yakkabog' tumanida (110,5 %) qayd etildi.

Hududlar bo'yicha iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Hududlar kesimida iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Qarshi shahriga to'g'ri kelib, 23,5 % ni shuningdek, Koson tumani 10,2 % ni, Yakkabo' tumani 7,9 % ni, Shahrisabz shahri 7,5 % ni va Kitob tumani 7,0 % ni tashkil etdi.



1484,9 mlrd. so'm


2020- yil yanvar – may

1356,8 mlrd. so'm

2021- yil yanvar – may

1505,1 mlrd. so'm

2022- yil yanvar – may



Jami sanoat ishlab chiqarishi hajmida iste'mol mahsulotlarining ulushi

2020- yil

97,1 %

2021- yil

107,0 %

2022- yil

111,0 %

o'sish sur'ati

mlrd. so'm

Hududlar bo'yicha nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Hududlar kesimida nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Koson tumaniga to'g'ri kelib 12,9 % ni, Qarshi shahar 11,6 %, Kitob tumaniga 9,6 %, shuningdek, Chiroqchi tumani 8,3 % ni tashkil etdi.

522,6 mlrd. so'm


2020- yil yanvar – may

500,3 mlrd. so'm


2021- yil yanvar – may

535,5 mlrd. so'm

2022- yil yanvar - may



Jami iste'mol mollari ishlab chiqarish hajmida nooziq- ovqat mahsulotlarning ulushi




2020- yil
96,9 %
2021- yil
106,9 %
2022- yil
110,4 %


o'sish sur'ati

mlrd. so'm

Hududlar bo'yicha oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

Hududlar kesimida oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Qarshi shahriga to'g'ri kelib, 31,7 % ni, shuningdek, Koson tumani 9,2 % ni, Yakkabog' tumaniga esa 6,9 % ni tashkil etdi.



o'sish sur'ati
mlrd. so'm

Qashqadaryo viloyati tuman, shahar kesimida sanoat ishlab chiqarishi hajmlari

Hududlar kesimida sanoat ishlab chiqarilishining viloyat jami hajmidagi eng yuqori ulushi Nishon tumaniga to‘g‘ri kelib, 19,9 % ni, shuningdek, G‘uzor tuman 18,3 % ni, Qarshi shahar esa 15,3 % ni tashkil etdi.

Qashqadaryo viloyat

2020- yil

5140,9 mlrd. so‘m

2021- yil

6994,4 mlrd. so‘m

2022- yil

7742,2 mlrd. so‘m



2020- yil



92,4 %

2021- yil

127,4 %


2022- yil

105,1 %



Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish

Aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishning taqsimlanishi, yirik sanoat korxonalari joylashganligi hisobiga Nishon (9637,7 ming so'm), G'uzor (6663,0 ming so'm), Qarshi shahri (4158,3 ming so'm), Dehqanobod tumanida (3122,5 ming so'm), Kasbi tumanida (2910,6 ming so'm), Qarshi tumanida (2607,0 ming so'm) o'rtacha viloyat darajasi ko'rsatkichidan (2266,6 ming so'm) ancha yuqoriligini ko'rsatmoqda.



Qashqadaryo viloyati

2020- yil

1564,0 ming so'm

2021- yil

2092,9 ming so'm

2022- yil

2266,6 ming so'm



2020- yil

90,5 %

2021- yil


125,3 %

2022- yil

102,8 %

Sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda kichik biznesning ulushi

Hisobot davrida kichik tadbirkorlik subyektlari tomonidan 1715,6 mlrd. soʻmlik sanoat mahsuloti ishlab chiqarilib, uning umumiy ishlab chiqarish hajmidagi ulushi 22,2 % ni tashkil etdi.



Qashqadaryo viloyati

2020- yil

1439,4 mlrd. soʻm

2021- yil

1385,3 mlrd. soʻm

2022- yil

1715,6 mlrd. soʻm



2020- yil

28,0 %

2021- yil

19,9 %



2022- yil

22,2 %

Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarish


Viloyat bo'yicha aholi jon boshiga iste'mol mahsulotlari ishlab chiqarilishi 440,6 ming so'm bo'lgani holda, Qarshi shahrida – 1 245,3 ming so'mni, Shahrisabz shahrida – 791,5 ming so'mni, Mirishkor tumanida – 582,0 ming so'mni va Koson tumanida – 515,2 ming so'mni tashkil etdi.

Qashqadaryo viloyati



Qashqadaryo viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan va yangi tashkil etilgan sanoat korxonalari

Bugungi kunda viloyatda 5156 ta sanoat korxonalari faoliyat ko'rsatmoqda, shundan 942 tasi (ro'yxatdan o'tgan korxonalar umumiy sonining 18,3 % i) Qarshi shahriga, 550 tasi (10,7 %) Kitob tumaniga, 453 tasi (8,9 %) Yakkabog' tumaniga, 450 tasi (8,7 %) Chiroqchi tumaniga to'g'ri kelmoqda.



Jami yangi tashkil etilgan



Jami faoliyat yuritayotgan

